

CHO'LPON SHE'RIYATI TILIDA FRAZEMALAR Ning QO'LLANILISHI

Hodiyeva Muhayyo
Qarshi DU

Abstract: Tilning lug‘aviy tarkibini o‘rganish tilshunoslikda doimo asosiy, yetakchi vazifa bo‘lib kelgan. Chunki so‘z inson tafakkuridagi tushunchalarni ifoda qiluvchi, nomlovchi, yetakchi lisoniy vositadir. Til amalida (nutqda) leksika va uning birliklari qanday muhim ahamiyat kasb etsa, unga (leksikaga) emotsiyal-ekspressiv jahhada muqobillashuvchi frazeologik tizim va uning birliklari ham ana shunday ahamiyatga ega bo‘ladi. Cho‘lpon she’riyati leksikasi juda keng bo‘lib, shoir o‘zbek tilining lug‘aviy boyligini, uning imkoniyatlarini yorqin ifodalay olgan. Ishimizda Cho‘lpon ijodida frazeologik birliklar alohida tahlilga tortildi. Cho‘lpon ijodida frazeologik tizimining shakllanishi va boyishida boshqa tillardan o‘zlashgan lisoniy birliliklarning ijobiylari ta’siri cheksizdir.

Key words: frazeologiya, ibora, dialektal frazeologiya, frazema.

Аннотация: Изучение лексического состава языка всегда было основной и ведущей задачей в лингвистике. Это связано с тем, что слово является основным языковым средством, выражающим и называющим понятия в человеческом мышлении. Как лексика и её единицы имеют важное значение в практике языка (речи), так и фразеологическая система и её единицы, дополняющие лексику в эмоционально-экспрессивной сфере, имеют такое же важное значение. Лексика поэзии Чулпана очень обширна, и поэт ярко выразил богатство узбекского языка и его возможности. В нашей работе фразеологические единицы в творчестве Чулпана подверглись специальному анализу. Положительное влияние заимствованных из других языков языковых единиц на формирование и обогащение фразеологической системы в творчестве Чулпана безгранично.

Ключевые слова: фразеология, фраза, диалектальная фразеология, фразема.

Annotation: The study of the lexical composition of a language has always been a primary and leading task in linguistics. This is because a word is the main linguistic tool that expresses and names concepts in human thought. Just as vocabulary and its units hold significant importance in language practice (speech), the phraseological system and its units, which complement the vocabulary in the emotional-expressive domain, are equally important. The vocabulary of Cho‘lpon’s poetry is very extensive, and the poet has vividly expressed the richness of the Uzbek language and its potential. In our work, phraseological units in Cho‘lpon’s works have been specially analyzed. The positive influence of linguistic units borrowed from other languages on the formation and enrichment of the phraseological system in Cho‘lpon’s works is limitless.

Keywords: phraseology, idiom, dialectal phraseology, phraseological unit.

Frazeologiya o‘zbek tilshunosligining nisbatan yaxshi tadqiq qilingan sohalaridan biridir. Uning rivojiga Sh.Rahmatullayev[5], B.Yo‘ldoshev[2], A.Mamatov[3] va Abdug‘ofir Mamatovlar[4] sezilarli hissa qo‘shishdi.

O‘zbek tili frzeologiyasining ma’lum qismini konkret yozuvchilarning asarlari tilida uchraydigan

frazeologik birliklarning tiplari va uslubiy xususiyatlarini o‘rganishga bag‘ishlangan ishlar tashkil qiladi. Ayniqsa, Alisher Navoiy, Abdulla Qodiriy, Abdulla Qahhor, G‘afur G‘ulom, Said Ahmad, Zulfiya, Mirtemir, Oydin, Muqimiy, H.Olimjon asarlari tili frazeologiyasining semantik va uslubiy xususiyatlarini o‘rganishga bag‘ishlangan ishlar xarakterlidir.

Shunga qaramasdan, o‘zbek tilidagi frazeologik material tilning barcha ijtimoiy-funksional doiralari va sathlari o‘rganilishi bugungi kunda dolzarb mavzuligini yo‘qotgani yo‘q. Bu masalada E.Begmatovning quyidagi fikrlarini eslash o‘rinlidir: “ Xalq tili frazeologiyasi, o‘zbek folklori frazeologiyasi, ayniqsa, o‘zbek dialektal frazeologiyasi hali tadqiq qilinganicha yo‘q. Frazeologik birliklar o‘zbek tili lug‘at sostavining tarkibiy qismi bo‘lib, u til uchun badiiy-estetik tasvir vositasи hisoblanadi”[1].

Qayd qilingan fikrga o‘zbek mumtoz adabiyoti tilidagi va o‘zbek tili rivojining turli davrlaridagi frazeologik birliklarni ham qo‘sish mumkin. Mana shu ma’noda o‘zbek adabiy tilining 20-30-yillar davriga oid, turli uslubga mansub matnlarda uchraydigan frazemalarni tadqiq qilish ham dolzarbdir. Bizning kuzatishlarimiz Cho‘lpon asarlari tilida, jumladan, she’riyati matnlarida bir qator frazeologik iboralar ko‘plab uchrashini ko‘rsatdi. Chunonchi, frazemalar:

Ko‘z tikmoq, ya’ni “umidvor bo‘lmaslik” ma’nosida:

Ko ‘ngil, tinmas ko ‘ngil, endi yetar, ko‘z tikma gullarga,

(Buloqlar to‘plami. Qizlarning daftariga she’ri. 1922)

Ko‘ngil bermoq - “bahor faslidan bahramand bo‘lish” ma’nosida:

*Bir oz... bir oz ko‘ngil beray ko ‘klamda
Shaftolining go ‘zal, qizil yuziga.*

(Buloqlar to‘plami.Ko‘klam qayg‘usi.1922)

Sabr kosasi to‘lmoq – “uzoq kutish orqali umidsizlikka tushish” ma’nosida:

Sabrning kosasi to‘lgandir,

Bu og ‘ir ayriliq to ‘ydirgan,

(Buloqlar to‘plami.Ishq yo‘li.)

Qo‘l solmoq - “ko‘ngil bermoq” ma’nosida:

Sezgim-da sog’, tetik, bardam edi-ku,

Bo ‘ynimga qo‘l solgan bir hur edi-ku!

Og‘iz olmoq, “hayoti, yashash tarzi haqida fikr bildirish” ma’nosida:

Chindan-da turmushdan og‘izmi oldim?

Chindan-da umidim butkul ketdimi?

Qora bosmoq – “omad yuz o‘girmoq, yomon ahvolga tushmoq”:

Birgina meni qora bosqon,

Yalqov miya suyulib qoldi.



(Buloqlar to‘plami.Aldanish.)

Po‘stini shilmoq – “balo-qazoga girifdor qilmoq, halokatga duchor qilmoq”:

*Sufrangda sanga do‘st bo‘lub, g‘iybating qilur,
Do‘sting iloj topsa, saning po‘stingni shilur.*

Qulog‘i kar bo‘lmoq – “eshitmaganlikka olmoq, parvo qilmaslik”:

*Dod-faryod etganing birla qulog‘i kar eling.
Ters to‘nini tashlamas, Hijron, bu axtoring g‘alat*

Qof yo‘qotgandek turmoq, ya’ni “angrayib, xayron bo‘lib, fahmi yetmay turmoq”:

*Yovrupo xalqi har ishga nazar ibrat uchun boqsa,
Bizim el qof yo‘qotgandek turushkoniga diqqatman.*

Ko‘zi qolmoq - “uzoq safarga ketgan odamni kutish, hali aytilmagan tuyg‘ularining borligi” ma’nosida:

Ketding, biroq izlaringda ko‘z qoldi,

Tillaringda aytilmagan so‘z qoldi,

(Buloqlar to‘plami.Ulug‘ yo‘lovchiga.)

Ko‘pga kelgan to‘y – “barchaning boshiga tushgan, umumiy kulfat, holat”:

*Na qilay, bu ko‘bga kelgan to‘y
Mani choram nadur?!*

Tili buralmoq-“kuylamoq ,sayramoq, nolish qilmoq.Bu yerda qarg‘aning qag‘illashi nazarda tutilgan”:

Qarg‘aning tillari buraldi yana,

Yana qish chorladi «nafarlar»ini...

(Buloqlar to‘plami.Qor qo‘ynida yana qor.)

Ko‘ngli orom olmoq- “yorni ko‘rib oshiqning taskin topishi,ko‘ngli tinchlanishi”:

*Uning yuzidan, go‘zalligidan
Oshiqning ko‘ngli bir orom olsin!*

(Tong sirlari to‘plami.Kleopatra uyqusi. Buxoro. 1921, 17 -avgust)

Xayoli uchib ketmoq-“fikrni,aqlni yo‘qotib qo‘ymoq,fikrning ketib qolishi” :

Xayolim bir uchib ketib qoladir,
Men ham tizginini qo‘yib beraman.

(Tong sirlari to‘plami.Men shoirmi? Qo‘qon. 1923, 1- dekabr)

Sil yuzidek rangi so‘lib ketmoq-“rangsiz,xira tarzda qorong‘ulikning kirib kelishi”:

*Sil yuzidek rangi ketib so‘liblar,
Qorong‘ilik Sharq tomondan qo‘zg‘algan!*

(Tong sirlari to‘plami.Kech kirish.Toshkent.1923,5-may)



Qon yig‘lamoq-“nihoyatda alam va iztirob bilan yig‘lamoq”:

*Umidimning zavoliga qon yig‘lagan ko ‘zlarim
Yoshlarini yuzlaringga tomchi-tomchi to ‘kdimi?*

(Tong sirlari to‘plami.Shaftoliga.Qo‘qon.1924,3-aprel)

Gap tashlamoq- “gullar,o‘simliklar bilan suhbat qurmoq, so‘zlashmoq”;

*Yanasebarga¹ larga gap tashlab,
Tilda qillarni turgizib qoldim...*

(Tong sirlari to‘plami.Jar bo‘ylarida.Toshkent.1923,8-aprel)

Sil bo‘lgan ko‘ngil-“ezilgan, g‘am-alamdan qiyalgan ko‘ngil”:

*Yengil oyoqlari yo ‘rg ‘alab ketsa,
Sil bo‘lgan ko‘ngil ham ochilar, yayrar!*

(Tong sirlari to‘plami.Satang.Toshkent.1922,6-avgust.)

Ko‘ngli yayramoq-“ko‘klamning kelishidan xursand bo‘lmoq,shodlanmoq”:

*Deb xabar bersa,
Shunda ham ko‘nglim ancha yayraydir!*

(Tong sirlari to‘plami.Ko‘klamdan xabar. Andijon. 1925, 17-mart)

Keltirilgan frazemalarning ba’zilari xalq tilida keng iste’molda bo‘lgan birliklardir. Ulardan foydalanish Cho‘lpon she’riyati tiliga badiiy ta’sirchanlik, misralarga lo‘ndalik, qisqalik bag‘ishlagan. Ayniqsa, ushbu frazeologik birliklarning oddiy xalq nutqining lug‘aviy normasi ekani, she’rlar tilini xalq tiliga yaqinlashtirgan, ta’sirchanligini oshirgan. Bundan tashqari, ushbu frazemalar Cho‘lponning xalq tilini yaxshi bilgani, ulardan o‘rinli foydalana olganligidan dalolat beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Begmatov E. Hozirgi o‘zbek adabiy tilining leksik qatlamlari. -T.: Fan, 1985. -B.15-16.
2. Yo‘ldoshev B. Frazeologik uslubiyat asoslari. - Samarqand: SamDU, 1999. -106 b;
3. Mamatov A. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida leksik va frazeologik norma muammolari: Filol. fan. dokt ... diss. avtoref. -T., 1991. - 52 b.
4. Mamatov A. O‘zbek tili frazeologizmlarining shakllanishi masalalari: Filol. fan. dokt ... diss. avtoref. - T., 2000. - 58 b.
5. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati. - T.: O‘qituvchi, 1978. -405 b.
- 6.Cho‘lpon.Yana oldim sozimni.- T.:G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashryoti,1991.
- 7.Cho‘lpon.Ko‘klam ruhi.-T.: Yoshlar nashryot uyi,2019.
- 8.Cho‘lpon.Buloqlar quchog‘ida.-T.:Cho‘lpon nomidagi nashryot-matbaa ijodiy uyi,2007.
- 9.[9.https://chulpon.uz/category/asarlar/nasriy-asarlar/](https://chulpon.uz/category/asarlar/nasriy-asarlar/)

¹ Sebarga-(Trifolium) dukkakdoshlarga mansub bir,ikki va ko‘p yillik o‘tsimon o‘simlik turkumi,yemhashak ekini.



